

FIF – Universal Bank, Mikro, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, Kredit II

Mamlakat: O'ZBEKISTON

Loyiha raqami: 56538

Faoliyat sohasi: Depozitariy krediti (banklar)

Xabarnoma turi: Xususiy sektor

Ekologik toifasi: Moliyaviy muassasa (FI)

Tasdiqlanish sanasi: 2025-yil, 21-oktabr

Loyiha bosqichi: Imzolangan

Loyihaning qisqacha mazmuni

(LQM) Ingliz tilida chop etilgan

sana: 2025-yil, 27-oktabr

Axborotdan foydalanish huquqi ko'rsatmasining 1.4.2 (iii) bandiga muvofiq: "Direktorlar kengashi tasdiqlash vakolatini YTTB (Bank) rahbariyatiga yuklagan va Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalar bo'yicha, LQM Bankni tashkil etish Bitimining 13-moddasi (iii) bandiga muvofiq, Bankning a'zo davlati uchun tegishli e'tiroz bildirmaslik to'g'risidagi xabarnoma davrining boshlang'ich nuqtasida e'lon qilinadi."

Loyiha mazmuni

O'zbekistondagi xususiy mikro, kichik va o'rta biznes korxonalarini (MKO'B) qo'llab-quvvatlash maqsadida Universal bank aksiyadorlik tijorat banki foydasiga AQSh dollarida yoki mahalliy valyuta ekvivalentida ikki teng qismlarda bo'lib, jami 5 million AQSh dollarigacha bo'lgan katta kredit ajratilishi ko'zda tutilgan. Kreditning har ikkala qismining kamida 30 foizi ayollar boshchiligidagi MKO'B larga ajratilishi lozim.

Loyiha maqsadi

MKO'B krediti Universal bankka moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va xususiy mikro, kichik va o'rta korxonalarga kredit berishni kengaytirish imkonini yaratadi va yangi mijozlarni jalb qilish hamda Toshkent shahridan tashqarida joylashgan qarz oluvchilarga e'tiborni qaratishga yo'naltiriladi.

O'tish davri ta'siri ko'rsatkichi

ETI 60

Ushbu loyiha YTTBning mamlakat moliya sektorini qo'llab-quvvatlashdagi sa'y-harakatlarini, xususan, MKO'Blarga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy jihatdan barqaror banklar bilan hamkorlik orqali davom ettiradi. MKO'Blar uchun ajratiladigan kredit Universal bankka xususiy MKO'Blardan tashkil topgan kredit portfelini kengaytirish imkonini berish orqali raqobatbardoshlikni oshirishiga xizmat qiladi. Kreditning milliy valyutada taqdim etilishi, shuningdek moliyaviy koeffitsientlarga rioya qilish va portfel sifatini yuqori darajada saqlab qolish bo'yicha talablar institutning barqarorligini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Mijoz haqida

UNIVERSAL BANK AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

Universal bank — 2001 yilda O'zbekistonning Qo'qon shahrida (Farg'ona vodiysi) tashkil etilgan xususiy moliyaviy muassasadir. Bank mahalliy mikro, kichik va o'rta biznes (MKO'B) subyektlari hamda chakana mijozlarga keng turdagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi va Farg'ona vodiysi hamda Toshkent hududlarida joylashgan to'qqizta filial orqali faoliyat yuritadi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

5,000,000.00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

5,000,000.00 AQSH dollari

Qo'shimchalilik ko'rsatkichlari

YTTB krediti qo'shimchalilik ko'rsatkichlari ikki asosiy yo'nalish orqali namoyon bo'ladi: moliyalashtirish tuzilmasi va standartlarni belgilash.

Moliyalashtirish nuqtayi nazaridan, YTTB o'rta va uzoq muddatli moliya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari keskin cheklangan bozorda faoliyat yuritayotgan xususiy bankka nihoyatda zarur bo'lgan muddatli moliyaviy resurslarni taqdim etmoqda. Kreditning muddati mijoz uchun odatiy va maqbul bozor sharoitlarida mavjud bo'lgan muddatga nisbatan uzunroqdir.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan tashqari, YTTB Universal bank va uning mijozlariga gender tengligi va inklyuzivlik sohasida yuqoriroq standartlarga erishishda yordam beradi. Bu, ayniqsa, bank faoliyat yuritayotgan aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysi hududi uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Mijoz moliyaviy muassasa toifasiga kiritilgan (ESP 2024). Universal bank (UB) YTTBning (EBRD) amaldagi mijosi bo'lib, joriy majburiyatlar doirasida atrof-muhit va ijtimoiy (A&I) ko'rsatkichlari bo'yicha qoniqarli baholanmoqda. Texnik hamkorlik mablag'lari ko'magida Universal bank (UB) YTTB talablariga muvofiqlashtirilgan, kuchaytirilgan A&I siyosat va tartib-taomillarni o'z ichiga olgan Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimini ishlab chiqdi va tasdiqladi hamda ushbu standartlarni barcha sub-loyihalarida qo'llab kelmoqda.

UB sub-loyihalari bilan bog'liq A&I xatarlar va ta'sirlarni samarali baholash, boshqarish va monitoring qilish maqsadida o'zining A&I boshqaruv tizimini doimiy ravishda amalda qo'llashi kutiladi. Bank YTTBning 2024 yilgi Atrof-muhit va ijtimoiy siyosati (ESP) doirasida Atrof-muhit va ijtimoiy talablariga (ESR), xususan, ESR 2, 4 va 9 ga rioya qilishi, jumladan YTTBning Atrof-muhit va ijtimoiy istisnolar ro'yxatiga ham amal qilishi lozim. Shuningdek, UBdan har yili YTTBga tegishli ESRlarga muvofiqlik holatini bayon etuvchi hamda yil davomida yuzaga kelgan har qanday A&I masalalarni yorituvchi yillik A&I hisobotlarini taqdim etishni davom ettirishi talab etiladi.

Agar YTTB mablag'lari qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha sub-loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilsa, ushbu sub-loyihalar YTTBning qayta tiklanuvchi energiya sub-loyihalari uchun belgilangan A&I muvofiqlik mezonlariga, shuningdek FIF Siyosat bayonotida nazarda tutilgan boshqa tegishli mezonlarga javob berishi shart.

Yashil ko'rsatkichlar

Taklif etilayotgan MKO'B bo'yicha kredit shartnomasi YTTBning bilvosita moliyalashtirish uchun qo'llaniladigan Parij kelishuviga muvofiqlik metodologiyasi asosida Parij bitimiga mos deb topilgan. Bu quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- (i) MKO'B sub-loyihalari uchun mablag'lardan foydalanish maqsadining aniq belgilanganligi,
- (ii) tegishli istisnolar ro'yxatining qo'llanilishi, hamda

(iii) mijozning issiqxona gazlari chiqindilari kam bo'lgan va iqlim o'zgarishlariga bardoshli rivojlanishga o'tish yo'nalishiga mos moliyaviy oqimlarni shakllantirish masalasida YTTB bilan hamkorlik qilish majburiyati.

Texnik ko'mak va grant moliyasi

Universal bank Yevropa Ittifoqi tomonidan Markaziy Osiyo uchun Investitsiya jamg'armasi (IFCA) orqali moliyalashtiriladigan "Markaziy Osiyo uchun Mintaqaviy Kichik Biznes Dasturi – Texnik Hamkorlik (TC) Dasturi" doirasidagi texnik hamkorlikdan foydalanishni davom ettiradi. Bank markazlashtirilgan o'quv seminarlarida hamda elektron o'qitish (e-learning) kurslarida ishtirok etish orqali ushbu ko'makdan manfaat ko'radi.

Kompaniyaga bog'lanish ma'lumotlari

Otabek Karimov
otabek.karimov@universalbank.uz
+998998481108
www.universalbank.uz
Shohruhobod ko'chasi 150700 Kokand Republic of Uzbekistan

LQM oxirgi marta tahrir etilgan sana

2025 yil, 27-oktabr

O'tish davri nima

O'tish jarayoniga loyihaning ta'sirini baholash bo'yicha YTTBning yondashuvi borasida qo'shimcha ma'lumotni mana shu yerdan topishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

tel: +44 20 7338 7168

email: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar bo'yicha: EBRD Procurement veb sahifasida

Tel. : +44 20 7338 6794,

Electron pochta: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Xos savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi havolasi orqali yuborishingiz mumkin.

YTTBning ekologik-ijtimoiy siyosati (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda ESP va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z

mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni ESPdan topish mumkin.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzdagi xabarlar tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan AIP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiq qilish bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi "Axborotdan erkin foydalanish siyosati" bo'limiga kiring. Xos savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) havolasi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IIPCM)

Agar Mijoz yoki YTTB orqali atrof-muhit, ijtimoiy masalalar yoki axborotni oshkor etish bilan bog'liq xavotirlarni bartaraf etish bo'yicha urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlansa (masalan, mijozning loyiha darajasidagi shikoyatlar mexanizmi orqali yoki YTTB rahbariyati bilan bevosita muloqot yo'li bilan), jismoniy shaxslar va tashkilotlar o'z murojaatlarini YTTBning Mustaqil Loyihalar bo'yicha Javobgarlik Mexanizmi (IPAM) orqali ko'rib chiqish uchun taqdim etishlari mumkin.

IPAM zarar yetkazgan yoki zarar yetkazishi ehtimoli mavjud deb hisoblangan loyiha bilan bog'liq masalalarni mustaqil ravishda ko'rib chiqadi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyiha manfaatdor tomonlari o'rtasida atrof-muhit, ijtimoiy va axborotni oshkor etish masalalarini hal etish bo'yicha muloqotni qo'llab-quvvatlash; YTTBning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga yoki Axborotdan foydalanish siyosatining loyiha bo'yicha tegishli qoidalariga rioya etilgan-etilmaganini aniqlash; hamda zarur hollarda ushbu siyosatlarga nisbatan mavjud

nomuvofiqliklarni bartaraf etish va kelgusida YTTB tomonidan bunday nomuvofiqliklarning oldini olishdan iborat.

IPAM, uning vakolatlari va arizani ko'rib chiqish uchun murojaat yuborish tartibi haqida batafsil ma'lumot olish uchun Mustaqil Loyihalar bo'yicha Javobgarlik Mexanizmi veb-sahifasiga tashrif buyurishingiz mumkin. Shu bilan birga, maslahat va qo'shimcha ma'lumot olish hamda murojaat yuborish tartibi bo'yicha ipam@ebrd.com elektron pochta manzili orqali IPAM bilan bog'lanishingiz mumkin.